



RAQAMLI IQTISODIYOTDA RESPUBLIKA BANK TIZIMINI FAOLYATINI NAZORAT QILISHNING O'ZOGA XOS XUSUSIYATLARI

Erkinov Farrux Rustam o'g'li

*O'zbekiston Respublikasi bank-moliya
akademiyasi tinglovchisi, ATB Kapitalbank. Bosh mutaxassis.*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Raqamli iqtisodiyotida respublika bank tizimini faoliyatini nazorat qilishning o'ziga xos xususiyatlari tahlil etiladi.*

Kalit so'zlar: *bank, raqamlashtirish, TBS, Anorbank, kredit, omonat.*

O'zbekiston Respublika Markaziy banki mas'uliyat yuklatilgan xodimlari Milliy matbuot markazida ommaviy axborot vositalari namoyandalari bilan mustaqillik yillarida bank tizimida amalga oshirilgan islohotlar, erishilgan samaralar bo'yicha ochiq muloqot tashkil etdi. Mustaqillik yillarida yurtimizda bank tizimi rivojiga qaratilgan birlamchi o'zgarishlar o'zining kutilgan natijasini ko'rsatmoqda. Bugungi kunda banklar tadbirkorlar bilan nafaqat xaridor, balki yaqindan birga amalga oshiruvchi hamkor, maslakdosh sifatida mustahkam aloqa o'rnatgan. O'z biznesini yo'lga qo'yish, rivojlantirish istagida bo'lgan, ishning ko'zini biladigan yuridik va jismoniy shaxslarga banklar katta yordam berib kelmoqda. Bir so'z bilan aytganda, fuqarolarimiz ishonchini qozonadigan, keng qamrovli moliyaviy xizmatlarni ko'rsata oladigan bank tizimi shakllandi. Ayni paytda respublikamizda ish olib borayotgan 32 ta tijorat bank muassasalari orqali tizimda erishilgan ijobiy natijalar mustahkamlanmoqda. Insoniyat har kuni ko'plab axborotlarni qabul qiladi.

Bunga mobil telefon, internet, smartfonlarning doimiy ravishda o'sib borayotgan texnik imkoniyatlari, insonlarning ijtimoiy tarmoqlarga jalb qilinishi va internet tezligining o'sishi katta yordam beradi. Albatta, bugungi kunda axborot tizimining sezilarli darajada o'zgarishi asosida jamiyat, hukumat, iqtisodiyot, biznes, savdo va bank sohasidagi tub o'zgarishlarni ham kuzatishimiz mumkin. Keling, raqamli bank o'zi nima va bank jarayonlari takomillashtirilgan tizimi qanday yo'lga qo'yilganligi haqida to'xtalib o'tsak.

Prezidentning "O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni imzolangan, bank tizimiga chakana bank xizmatlariga ixtisoslashgan "raqamli" banklar va bank bo'linmalarini tashkil etish hamda innovatsion bank texnologiyalaridan foydalangan holda mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini yana-da kengaytirish vazifasi yuklatilgan.

Shunga ko'ra, O'zbekistonda 2020 yilda "Anorbank" va "TBC bank"lar raqamli bank sifatida ro'yxatga olindi. Darhaqiqat, "raqamli bank" tushunchasi 2015-2020 yillar davomida Yevropa davlatlarida jadallik bilan rivojlangan. Raqamli banklar o'z mijozlariga yanada qulaylik va foydali xizmatlarni taqdim etish maqsadida zamonaviy raqamli innovatsiyalardan keng foydalanadi.



Bugungi kunda raqamli bank sanalmish “Anorbank” va “TBC bank”lar ham o‘z mijozlariga mobil ilovalar yoki statsionar kompyuterlar orqali to‘liq raqamli xizmatni taqdim etmoqda. Bu shuni anglatadiki, raqamli bank mijozlari 24/7 tizimida bank xizmatlaridan foydalanishi mumkin. Ya’ni, raqamli bank tizimida mijozga mobil dasturi, mobil dasturga asosan esa yuqori texnologiyali IT-infratuzilma bilan ta’irlangan bank operatsiyalarining yuqori moslashuvchanligi taqdim etiladi.

Hozirgi vaqtda mijozlar o‘z hisobvaraqlarini masofadan turib, real vaqt rejimida Mobil banking – internet tarmog‘i yordamida mobil telefon (smartfon) orqali bank xizmatlaridan foydalanishning zamonaviy usullar orqali bank xizmatlaridan foydalanuvchilarga bank hisobvarag‘ini masofadan boshqarish imkonini beradi va deyarli barcha internet-banking operatsiyalarini ta’minlaydi. O‘tgan 2018 va joriy 2022 yil, masofadan bank xizmatlarini ko‘rsatuvchi tizimlardan foydalanuvchilarning sonini o‘rganadigan bo‘lsak, mamlakatimizda bu ko‘rsatkich miqdori ancha o‘sganini ko‘rishimiz mumkin. Chunonchi 2018 yilda Yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar soni jami 227 879 nafar, jismoniy shaxslar esa 4 225 361 nafarni tashkil qilgan bo‘lsa bu ko‘rsatkichlar 2022 yil 1- yanvargacha qariyb 5 barobar oshganligini va barcha tijorat banklarimiz shu jumladan yangi ochilgan tijorat banklarimiz (“Uzagroeksportbank”, “Poytaxt bank”, “Tenge bank”, “TBC bank”, “ANOR bank”) ham xalqimizga beminnat va zamonaviy xizmat ko‘rsatib kelayotganini ko‘rishimiz mumkin. Bu natijalar bank xizmatlari va mahsulotlari turlari vaqt o‘tgan sari kengayib borayotganida, ishbilarmonlik muhiti borgan sari yaxshilanib, banklar tomonidan ajratilayotgan kreditlar hajmi o‘sayotganida aks etmoqda.

Aytish joizki, mijoz mobil banking yordamidabank kartalarining (kredit, debet va hokazo) holatini kuzatish;

mobil va shahar telefon xizmatlari, internet-provayderlar, kommunal, kabel va raqamli televideniya xizmatlari uchun vositachilik haqlarisiz to‘lovlarni amalga oshirish;

onlayn konversiya amaliyotlarni o‘tkazish; kartadan kartaga o‘tkazmalarni amalga oshirish;

operatsiyalarning avtomatik ijrosini sozlash – hisobvaraq bo‘yicha yoki muayyan sanalarda belgilangan to‘lovlar;

pul mablag‘larining bank hisobvarag‘iga tushganligi haqida ma’lumot olish;

bank kartasi orqali amalga oshirilgan operatsiyalar haqida ma’lumotnoma olish;

onlayn do‘konlarda haridlarni amalga oshirish;

kreditlarni so‘ndirish, omonatlarga mablag‘ qo‘shish;

kredit olish;

pul o‘tkazmasini olish/yuborish;

bank kartasini ochish;

bank kartasini bloklash va blokdan yechish;

bank kartasiga omonat bo‘yicha foizlarni kirim qilish;

bank kartasining amal qilish muddatini uzaytirish;



mobil ilova orqali turli valyutalarda xalqaro pul o'tkazmalarini amalga oshirish kabi imkoniyatlarga ega.

Garchi bunday xizmatlar joriy etilganiga ko'p vaqt bo'lmagan bo'lsada, lekin juda tez ommaviylashib ketdi. Xususan, so'nggi besh yilda ushbu xizmatlardan foydalanuvchi mijozlar soni qariyb 90 foiz3 ortdi yoki bugungi kunda 1,1 milliondan oshdi. Plastik kartochkadan foydalanish imkoniyatlari ham kengayib bormoqda. So'nggi besh yil mobaynida terminallar orqali amalga oshirilgan to'lovlar hajmi 5 marta ortdi.

Bank tizimiga yangi ilg'or axborot texnologiyalarini joriy etilishi bilan tijorat banklari tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlar tezkorligi, sifati va ishonchligi ham oshmoqda. Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, tijorat banklarining transformatsiya jarayoni va raqamli bank tizimida ishlashga o'zgarishi bu - yangi axborot texnologiyalarini rivojlanishi va butun dunyo bo'ylab faol tarqalishiga javob hisoblanadi hamda raqamli texnologiyalar nafaqat mahsulot va xizmatlar sifatini oshiradi, ortiqcha xarajatlarni kamaytiradi.

Boshqacha aytadigan bo'lsak, raqamli moliyaviy xizmatlarni rivojlantirish mamlakat bank-moliya tizimi ravnaqining muhim yo'nalishi bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. (2019). Law of the Republic of Uzbekistan. About the Central Bank of the Republic of Uzbekistan National Database of Legislation: No. 03/19/582/4014. 12.11.2019.
2. Кейнес, Дж.М. (1999). Общчая теория занятости, процента и денег. Пер. с англ.(п.352). Моссow: Гелиос АРВ.
3. Мишкин, Ф.С. (2013). Економическая теория денег, банковского дела и финансовйх рйнков. Пер. с англ. (п.485). Моссow: ООО «И.Д. Виллиамс».
4. Taylor, J. (1993). The Robustness and Efficiency of Monetary Policy Rules as Guidelines for InterestRate Setting by European Central Bank. Journal of Monetary Economics, Vol. 43. Issues, pp. 655-679.
5. Bobakulov, T.I. (2008). Problems of ensuring the stability of the national exchange rate in the Republic of Uzbekistan and ways to solve them. I.f.d. ilm. dar. ol. three. aqd.et. diss. avtofer. (p.27). Toshkent.
6. Yakubova, S. S. (2020). Deposit policy of commercial banks and ways of its effective formation. Theoretical & Applied Science, (11), - pp. 577-581.